N.A. Rakhmonova tomonidan yozilgan “Ways to Improve Quality in Hotels through Digital Technologies” nomli maqolada xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan [8]. Tadqiqotda sunʼiy intellekt asosidagi xizmatlar, onlayn bronlash tizimlari, raqamli fikr-mulohaza platformalari va smart tizimlar xizmatlar sifatini oshirishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. Olim xizmat koʻrsatish sifatini baholashda mijozlar fikr-mulohazalarini raqamli platformalar orqali yigʻish va tahlil qilish taklifini bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada maishiy xizmat koʻrsatish sohasida sifat nazoratini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini oʻrganish maqsadida koʻplab ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish jarayonida xizmatlar iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya hamda xizmatlar sifati nazorati boʻyicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik qismida esa statistik va deskriptiv tahlil usullari asosida BMTning elektron hukumat rivojlanish indeksi, telekommunikatsiya infratuzilmasi koʻrsatkichlari hamda Oʻzbekistonda internet infratuzilmasining rivojlanishiga oid 2020–2024-yillardagi statistik maʼlumotlar oʻrganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maishiy xizmat koʻrsatish sohasi iqtisodiyotning aholi kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan muhim tarmoqlaridan biridir. Soʻnggi yillarda aholining turmush darajasi oshishi va xizmatlarga boʻlgan talabning ortishi natijasida ushbu sohada xizmat koʻrsatish hajmi sezilarli darajada kengaydi. Biroq sohaning keng qamrovli va koʻp tarmoqli xarakterga ega boʻlishi xizmatlar sifatini samarali nazorat qilish jarayonini ham baravar ravishda murakkablashtirishni talab qimoqda. Xususan, koʻplab maishiy xizmat koʻrsatish subyektlari kichik biznes yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida faoliyat yuritishi sababli xizmat koʻrsatish standartlariga rioya etilishi ustidan nazorat mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirish zarurati mavjud. Natijada xizmatlar sifati boʻyicha yagona monitoring tizimining mavjud emasligi, xizmat koʻrsatish jarayonida shaffoflikning pastligi kuzatilmoqda.

Amaldagi nazorat usullari asosan anʼanaviy tekshiruv va hisobot tizimlariga, yaʼni qogʻozbozlikka asoslangan boʻlib, ular koʻpincha xizmatlar sifatini real vaqt rejimida baholash imkonini bermaydi. Bu esa xizmat koʻrsatish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni tezkor aniqlash va bartaraf etish vaqtini uzaytiradi. Shu sababli maishiy xizmat koʻrsatish tizimida sifat nazoratini raqamlashtirish va uning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon boʻyicha oʻzining kuzatuvlari va xalqaro miqyosda kuzatishlari natijasida ishlab chiqqan tashkilot, BMT ning UN E-Government Survey 2022-2024 yillardagi hisobotlari asoslanib biz Oʻzbekistonda maishiy xizmat koʻrsatish sohasini raqamlashtirish boʻyicha amalga oshiradigan ishlar ketma-ketligini begilab olishimiz mumkin. Sifat nazoratini takomillashtirish uchun qoʻllaniladigan oʻnta strategik yoʻlni uch asosiy oʻlcham BMT tavsiyasi, Oʻzbekistondagi joriy holat va EGD (E-Government Development Index, yaʼni Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi) tarkibiy komponenti kesimida taqdim etadi. Jadvalda keltirilgan yoʻllar BMT ning elektron hukumat rivojlanish modelidagi uchta asosiy indeks: OSI (Onlayn xizmatlar indeksi), TII (Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi) va HCI (Inson kapitali indeksi) hamda EPI (E-ishtirok indeksi) asosida tizimlashtirilib, har bir yoʻnalish Oʻzbekistonning 2024-yildagi 0.7999 EGD balini yanada oshirishga xizmat qiluvchi amaliy vosita sifatida belgilangan. (1-jadval)


1-jadval. BMT ma'lumotlari asosida maishiy xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish yo'llari¹

№	Raqamlashtirish yo'li	BMT tavsiyasi	O'zbekiston holati	EGDI komponenti
1	Onlayn xizmatlar platformasi	Barcha davlatlar yagona portal orqali xizmat ko'rsatishi tavsiya etiladi	700 dan ko' elektron xizmat, 10 mln+ foydalanuvchi	OSI
2	Raqamli telekommunikatsiya infratuzilmasi	Keng polosali internet va mobil tarmoqni 100% qamrab olish	TII bali: 0.87 (2024) — yuqori daraja	TII
3	Inson kapitalini raqamli rivojlantirish	IT ta'lim, raqamli savodxonlik dasturlari joriy etish	HCI bali: 0.75	HCI
4	Sun'iy intellekt va IoT integratsiyasi	AI, ma'lumotlar tahlili va IoT texnologiyalarini davlat xizmatlarini yaxshilashda qo'llash [9]	Boshlang'ich bosqich	OSI
5	Ochiq ma'lumotlar platformasi	Shaffoflikni ta'minlash va davlat ma'lumotlariga qulay kirish imkoniyati yaratish uchun ochiq ma'lumotlar platformalari ishlab chiqish [9]	Qisman joriy etilgan	OSI
6	Bulutli hisoblash tizimlariga o'tish	Davlat ma'lumotlari va xizmatlarini xavfsiz bulut platformalariga ko'chirish, to'xtovsiz internet aloqasini ta'minlash [10]	Amalga oshirilmoqda	TII
7	Raqamli shaxsini tasdiqlovchi tizim	AI, bulut, ochiq ma'lumotlar litsenziyalash va raqamli identifikatsiya bo'yicha qonunchilik muhitini yaxshilash [11]	ID.UZ tizimi mavjud	OSI
8	Davlat-xususiy sheriklik modeli	Davlat-xususiy sheriklik va raqamli infratuzilma dasturlari keng polosali tarmoqlarni kengaytirishga, ishonchli raqamli xizmatlarni ta'minlashga yordam beradi [12]	Qisman qo'llanilmoqda	TII + OSI
9	Mahalliy raqamli xizmatlar	Milliy va shahar darajasidagi raqamli boshqaruvdagi tafovutni kamaytirish uchun mahalliy strategiyalarni kuchaytirish zarur [13]	"Raqamli mintaq" dasturi	OSI
10	E-ishtirok va fuqaro fikri tizimi	Fuqarolarni davlat siyosatini shakllantirishda raqamli vositalar orqali jalb etish e-konsultatsiya va e-ishtirok ko'rsatkichlarini oshirish [14]	my.gov.uz shikoyat tizimi	EPI

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, o'nta yo'ldan yettitasi YIDXP platformasi, AI va IoT integratsiyasi, ochiq ma'lumotlar, raqamli identifikatsiya, davlat-xususiy sheriklik, hududiy raqamli xizmatlar va e-ishtirok tizimi OSI va TII komponentlariga ta'sir etuvchi yo'nalishlardir. O'zbekiston bu sohalar bo'yicha hali to'liq amalga oshirish bosqichida. Jumladan, sun'iy intellekt va IoT integratsiyasi "boshlang'ich bosqich"da, ochiq ma'lumotlar platformasi "qisman joriy etilgan", bulutli hisoblash esa "amalga oshirilmoqda" deb baholangan bu uchta yo'nalish maishiy xizmat sifatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini berishi mumkin bo'lgan. Lekin hali to'liq foydalanilmayotgan rezerv sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, TII komponenti bo'yicha O'zbekiston 0.87 ball bilan yuqori darajaga erishgan bo'lsa-da, inson kapitali indeksi va e-ishtirok ko'rsatkichlari nisbatan pastroq. Bu esa maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish va fuqarolarning sifat nazorati jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Hisobotlar ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekiston 69-o'ringa 0.7265 EGDI bali bilan turgan, 2024-yilda 63-o'ringa ko'tarilib 0.7999 EGDI baliga erishgan va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2025-yil uchun belgilangan 0.75 EGDI maqsad ko'rsatkichini muddatidan avval bajardi. (1-rasm)

¹ UN E-Government Survey 2022 & 2024, UN DESA, DPIDG


1-rasm. O'zbekistonning EGI Dinamikasi²

BMT ning 2024-yildagi hisobotiga ko'ra O'zbekiston "yuqori" EGI guruhidan "juda yuqori" EGI guruhiga o'tgan 23 ta davlat qatoriga kirdi.[12] Dunyo bo'yicha raqamli hukumat rivojlanishida sezilarli yutuqlarga erishildi raqamli xizmatlardan orqada qolayotgan aholi ulushi 2022-yildagi 45 foizdan 2024-yilda 22.4 foizga tushdi. [13] Ya'ni, o'sish sur'atlari jihatdan O'zbekiston barqaror rivojlanish ko'rsatkichiga ega va bu ko'rsatkichlarni saqlab qolish uchun mamlakat hududida olib borilayotgan islohotlar hamda ushbu chora-tadbirlarga javob ravishda aholining qabul qilib foydalanishiga bog'liq jarayondir. Raqamli infratuzilmaning mavjudligi va zamon talabiga javob berishi rivojlanishning balanslashuviga olib keladi.

O'zbekistonda raqamli infratuzilma bo'yicha so'nggi yillarda internet va mobil texnologiyalarning keng qamrovli tarqalishi, smartfon foydalanuvchilarining keskin ko'payishi hamda davlatning raqamli siyosat sohasidagi faol harakatlari bu imkoniyatni yanada kuchaytirmoqda. Quyidagi jadval 2021–2025 yillar davomida O'zbekistonda raqamli infratuzilma rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini aks ettiradi. (2-jadval)

2-jadval. O'zbekistonda raqamli infratuzilma rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari³

Klassifikatorlar	2020	2021	2022	2023	2024	O'sish surati
Internet foydalanuvchilar, (ming birlik)	19981	22987.2	26723.6	30061	32138.6	+60.8
Aloqa korxonalarining aloqa xizmatidan tushgan tushumi tarkibida Internet xizmatining ulushi	30.2	34.1	35.9	47.9	51	+68.9
Internet tarmog'iga keng polosali ulanish bo'yicha abonentlar soni (ming birlik)	1080	1457.5	1840.3	2221.2	2932	+171.5
Internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni (ming birlik)	17946.5	20991.8	24017.6	27087.3	28592.7	+59.3
Internetga ulangan korxona va tashkilotlar ulushi	18.2	17.5	22.3	28.8	37.6	+106.6
Qayd qilingan (simli) tor yo'lakli tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	0.6	1	1.2	0.65	1.4	+133.3
Sun'iy yo'ldoshli keng yo'lakli tarmoq bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari ulushi	5.1	3.6	3.2	7.7	5.2	+2.0
O'zbekistonning mobil internet tezligi bo'yicha global reytingdagi o'rni	133	128	122	85	71	-46.6

Ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning yaqin besh yillikda barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlanganini yaqqol ko'rsatmoqda. Internet foydalanuvchilar soni 2020-yildagi 19 981 ming birlikdan 2024-yilda 32 138,6 ming birlikka yetib 160,8 foizlik o'sishni ko'rsatgan. Internet tarmog'iga keng polosali ulanish bo'yicha abonentlar soni esa 1 080 ming birlikdan 2 932 ming birlikka oshgan. Mobil aloqa orqali ulangan

2 BMT ning O'zbekistonning EGI Dinamikasiga keltirilgan ma'lumotlari asosida tuzilgan


3 O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.



abonentlar soni ham 17 946,5 ming birlikdan 28 592,7 ming birlikka ko'tarildi. Internetga ulangan korxona va tashkilotlar ulushi 18,2 foizdan 37,6 foizga ya'ni ikki barobardan ortiq oshgani esa raqamlashtirishning nafaqat aholi, balki biznes muhitida ham keng qo'llanilayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning mobil internet tezligi bo'yicha global reytingdagi o'rni 2020-yildagi 133-o'ringandan 2024-yilda 71-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich hali ham yuqori darajadan uzoq ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sun'iy yo'ldoshli keng yo'lakli tarmoq orqali internetga kirish imkoniyatiga ega uy xo'jaliklari ulushi atigi 5,2 foizni tashkil etib, amalda o'zgarishsiz qolmoqda. Bu esa qishloq va uzoq hududlardagi raqamli tafovut muammosi hali to'liq hal etilmaganligidan dalolat. Aloqa korxonalarining aloqa xizmatidan tushgan tushumida internet xizmatining ulushi 30,2 foizdan 51 foizga oshishi esa raqamli xizmatlar bozorining iqtisodiy salohiyati ortib borayotganini ko'rsatib, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida ham raqamli nazorat tizimlarini joriy etish uchun iqtisodiy jihatdan qulay sharoit yaratilganini isbotlaydi.

Yuqorida keltirilgan raqamlar aynan hukumat tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar, ularni bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan rejalarining amaldagi natijasi hisoblanadi. O'zbekistondagi 2016-yildan keyingi olib borilgan davlat miqyosidagi islohotlar, xususan, "Harakatlar Strategiyasi", "Taraqqiyot Strategiyasi" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" kabilar aynan shular jumlasidandir. Aynan raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishga ixtisoslashgan strategiya "Raqamli O'zbekiston – 2030" miqyosida ko'plab ishlar olib borilmoqda. (2-rasm)



2-rasm. Strategiyaning tuzilish sxemasi

Barchamizga ma'lumki strategiya beshta ustuvor yo'nalishni qamrab oladi: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar milliy bozorini yaratish hamda axborot texnologiyalari sohasida ta'lim va malaka oshirish. Har bir yo'nalish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar belgilanib, raqamlashtirish bo'yicha mas'ul o'rinbosarlar tayinlangan, ular malakasini uch yilda bir marta majburiy oshirish va reytingli baholash tartibi joriy etilgan.

Barcha besh yo'nalish pirovardida bitta maqsadga xizmatlar sifat nazoratini raqamlashtirish orqali takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, "Raqamli nazorat" doirasida davlat organlari va tashkilotlarida raqamli texnologiyalar bo'yicha loyihalar samaradorligi, raqamli xizmatlar va servislar ishidagi uzilishlar, aloqa markazlari xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari baholanishi belgilangan. 2023-yildan boshlab Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasiga qonunchilik talablarining buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan majburiy taqdimnomalar kiritish vakolati berilgan.[14]

Olib borilayotgan islohotlar natijalari sifatida shularni aytishimiz mumkinki, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2020–2024 yillar davomidagi amalga oshirilishi elektron davlat xizmatlari tizimini tubdan o'zgartirdi va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida ham sifat nazoratini raqamlashtirish uchun poydevor yaratdi. 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra YIDXPda 720 ta elektron davlat xizmati joriy etilgan bo'lib, ular 18 ta soha bo'yicha taqsimlangan va foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshdi foydalanuvchilarning 53,45 foizini erkaklar, 46,55 foizini ayollar tashkil etmoqda. [14] Portaldagi xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160 foizga o'sdi va foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan jami 9,5 million marotaba

foydalanildi. Bundan tashqari, hududlarda 1037 ta pochta aloqasi ob'ektlarida YaIDXP platformasidan foydalangan holda 60 turdagi davlat xizmatlarini taqdim etish yo'lga qo'yildi. [15]

Raqamli infratuzilmaning kengayishi xizmatlar sifatini nazorat qilishda shaffoflikni sezilarli darajada oshirdi va byurokratik to'siqlarni kamaytirdi. Strategiya doirasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini rivojlantirish, IT-parklarni tashkil etish hamda 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlandi. 2022-yilda YIDXP orqali eng ommalashgan xizmatlardan bolani bog'chaga joylashtirish bo'yicha 333 mingdan ziyod, kadastr pasportini shakllantirish bo'yicha 135 mingdan ziyod, chet tilini bilish darajasini tasdiqlash bo'yicha 105 mingdan ziyod arizalar qabul qilindi. [16] Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, aholining davlat xizmatlarini raqamli tarzda olishga bo'lgan tayyorgarligi va ishonchi tobora ortib bormoqda.

Davlat siyosatining izchilligi raqamli nazorat mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamladi va mas'uliyat tizimini joriy etdi. Rahbarlar va ularning raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarlariga axborot texnologiyalari va elektron xizmatlarni joriy etishni reyting baholash natijalariga ko'ra oylik maoshiga 30 foiz miqdorida ustama to'lanish tartibi o'rnatildi. Yangilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida 60 taga yaqin davlat organlariga tegishli o'lchanadigan samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanib, ularning har biriga erishilishi 2030 yilgacha yilma-yil rejalashtirilib, har bir ko'rsatkich uchun moliyaviy manbalar aniq ko'rsatildi. Samstat IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta'minlash, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksportini 5 milliard dollarga yetkazish hamda BMTning Elektron hukumat reytingida top-30 talikka kirish maqsadli ko'rsatkich sifatida belgilandi. [17]

Raqamlashtirish sohasida erishilgan yutuqlarga qaramay, maishiy xizmat ko'rsatishda sifat nazoratini to'liq raqamlashtirish yo'lida bir qator tizimli to'siqlar hamon bartaraf etilmagan. BMT reytingida O'zbekiston hozircha 87-o'rinni band etib turibdi va mamlakatning elektron hukumat rivojlanish indeksida kamida 55-o'ringa ko'tarilish maqsad qilingan. Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar monitoringi natijasida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha bir qator tashkilotlarga ko'rsatma xatlar yuborilgan. Ammo, maishiy xizmat ko'rsatuvchi xususiy ob'ektlarda raqamli nazorat mexanizmlari hali yetarli darajada joriy etilmagan. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" soha sifatida rivojlantirish va 2026-yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 barobar oshirish rejalashtirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, ushbu sohada xizmatlar sifatini samarali nazorat qilish masalasi hukumat tomonidan e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, internet foydalanuvchilari sonining ortishi va davlat tomonidan raqamli transformatsiya siyosatining izchil olib borilishi xizmatlar sifatini nazorat qilish tizimini modernizatsiya qilish uchun qulay imkoniyat yaratib berdi. Lekin maishiy xizmat ko'rsatish sohasining katta qismi kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilishi sababli xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa xizmatlar sifatini monitoring qilish, mijozlar fikr-mulohazalarini tahlil qilish hamda xizmat ko'rsatish jarayonida shaffoflikni ta'minlashda ba'zi turdagi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tahlil davomida BMTning elektron hukumat rivojlanish indeksleri (EGDI) hamda O'zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda telekommunikatsiya infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlangan, xizmatlarni to'liq raqamlashtirish hamda inson kapitalining raqamli salohiyatini oshirish yo'nalishlarida hali katta imkoniyatlar mavjud. Shuningdek, fuqarolarning raqamli xizmatlardan foydalanish faolligini oshirish, xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umumiy xulosa qilib aytishimiz mumkinki, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida sifat nazoratini raqamlashtirish xizmatlar samaradorligini oshirib, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga imkon yaratadi va xizmatlar bozorida raqobat muhitini kuchaytirishda hissa qo'shadi. Ishlab chiqilgan strategiyalar doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu jarayonni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida maishiy xizmat ko'rsatish sohasida yagona raqamli monitoring platformalarini joriy etib, xizmatlar sifati bo'yicha raqamli reyting tizimlarini yaratish hamda mijozlar fikr-mulohazalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlarini keng qo'llash orqali sifat nazoratining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olingan.

Biz tahlil qilgan mavzu yuzasidan asosiy to'rtta taklif ishlab chiqdik. Jumladan:

Birinchidan, yagona raqamli nazorat platformasini joriy etish. Ya'ni, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida sifat nazoratini samarali amalga oshirish uchun eng birinchi va eng muhim qadam barcha xizmat ob'ektlarini qamrab oluvchi yagona raqamli platforma yaratishdir. Ushbu platforma orqali iste'molchilar xizmat sifatini



real vaqt rejimida baholashi, shikoyat qoldirishi va natijalarni kuzatishi mumkin bo'ladi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar esa o'z faoliyatlarini ro'yxatdan o'tkazib, raqamli litsenziya va sertifikatlarini onlayn oladi, davlat nazorat organlari esa ob'yektlarning faoliyatini markazlashgan holda kuzatib boradi. Bu platforma YIDXP tizimi bilan integratsiya qilinsa, mavjud 10 milliondan ortiq foydalanuvchi bazasidan darhol foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa tizimni yangi infratuzilma qurmay turib tezkor ishga tushirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt asosida sifat monitoringi tizimini shakllantirish. Bu shuni anglatadiki, maishiy xizmat ob'yektlarida sun'iy intellekt va buyumlar interneti texnologiyalari asosida avtomatik monitoring tizimini joriy etish nazorat samaradorligini tubdan oshiradi. Xizmat ko'rsatish jarayonida yig'ilgan ma'lumotlar iste'molchi baholari, xizmat vaqti, shikoyatlar chastotasi, to'lov tarixi sun'iy intellekt tomonidan tahlil qilinib, sifat muammolari ular yuzaga kelishidan oldin aniqlanadi.

Uchinchidan, raqamli kadrlar tayyorlash va sertifikatlash tizimini kuchaytirish lozim. Ya'ni ushbu sohasidagi barcha muammolarning ildizi ko'p hollarda xodimlarning malakasi va raqamli savodxonligi bilan bog'liq. Shuning uchun soha xodimlari uchun maxsus raqamli sertifikatlash platformasi ishlab chiqish va uni elektron bandlik tizimi bilan bog'lash zarur. Ushbu platforma orqali har bir xodim o'z kasbiy malakasini tasdiqlagan raqamli sertifikat oladi, iste'molchilar esa xizmat ko'rsatuvchining malakasini QR-kod orqali tekshira oladi. BMT HCl indeksi bo'yicha O'zbekistonning hozirgi 0.75 bali bu yo'nalishda sezilarli zahira mavjudligini ko'rsatadi. Mavjud 280 ta raqamli savodxonlik markazi va "Bir million o'zbek dasturchi" loyihasi tajribasidan foydalanib, maxsus "Maishiy xizmat raqamli malakasi" dasturi ishlab chiqilishi va uni yakunlagan xodimlarga soliq imtiyozlari yoki litsenziya to'lovlari chegirmalar berilishi tizimni jozibador qiladi.

To'rtinchidan, hududiy raqamli tafovutni bartaraf etish va "raqamli mintaqa" dasturini kengaytirish ishlarini olib borish kerak. Bu orqali biz mavjud "Raqamli mintaqa" dasturini maishiy xizmat nazoratiga yo'naltirilgan hududiy komponent bilan to'ldirish va qishloq tumanlardagi xizmat ob'yektlarini raqamli tizimga bosqichma-bosqich jalb etish zarur. Buning uchun har bir tumanda maishiy xizmat ko'rsatish ob'yektlarining GIS-xaritasi tuzilib, xizmat sifati ko'rsatkichlari ochiq ma'lumotlar platformasida e'lon qilinishi kerak. Hali internetdan foydalanmaydigan aholi va xizmat ko'rsatuvchilar uchun esa pochta aloqasi ob'yektlari orqali raqamli xizmatlarni yetkazib berish, xususan YIDXP ning 1 037 ta pochta nuqtasidagi tajribasiga asoslanib amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162 sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/-6472548>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi "Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-7730357>
3. L. Zhou, Q. Xia, H. Sun, L. Zhang, and X. Jin, "The Role of Digital Transformation in High-Quality Development of the Services Trade," Sustainability, vol. 15, no. 5, 2023. Available: <https://www.mdpi.com/2071-1050/15/5/4014>
4. D. Fangqi, M. I. Irfan, and Z. Baloch, "Revolutionizing Quality Performance through Digitization, Technology Management, and Environmental Management," Frontiers in Environmental Science, 2023. Available: <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fenvs.2023.1169145>
5. S. O. Ighomereho, A. A. Ojo, S. O. Omoyele, and S. O. Olabode, "From Service Quality to E-Service Quality: Measurement, Dimensions and Model," 2022. Available: <https://arxiv.org/abs/2205.00055>
6. O. Klymenko, S. Lehomina, and A. Goloborodko, "Features of Quality Management of Electronic Services in Ukraine in the Conditions of Digitalization," RISUS Journal on Innovation and Sustainability, 2022. Available: <https://revistas.pucsp.br/index.php/risus/article/view/57166>
7. S. N. Mirzaeva et al., "Digitalization of Social Technologies in Improving the Efficiency of the Service Sector: Pros and Cons," Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education, 2024. Available: <https://www.multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/1249>
8. N. A. Rakhmonova, "Ways to Improve Quality in Hotels through Digital Technologies," Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025. Available: <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/5800>
9. United Nations Department of Economic and Social Affairs, "UN E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development", DPIDG, New York, 2024. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>
10. United Nations Department of Economic and Social Affairs, «UN E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government», DPIDG, New York, 2022. <https://desapublications.un.org/publications/un-e-government-survey-2022>
11. UN DESA, "E-Government Development Index (EGDI): Uzbekistan Country Data", 2024. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan>
12. Embassy of Uzbekistan in Ukraine, "Digital Transformation of Uzbekistan Promotes Regional Integration in Central Asia", 2024. <https://www.uzbekistan.org.ua/en/news/7390>
13. Boboqulov S. B. et al. O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA ELEKTRON BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 524-529.



14. A.N. Nizamov, S.K. Yuldashev, A.X. Jumayev, Sh.S. Sharifov, S.B. Boboqulov. [Salary in the system of material incentives for workers of construction](#) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 7. – P. 1925-1927.
15. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – V. 11. – ISSN Online: 2771-8948. – P. 218-224.
16. S.B.Boboqulov, Sh.B.Djurakulov. Elektron tijoratda “buy-side” hamda “sell-side” tizimlarining o’rni va ahamiyati. Iqtisodiyot va ta’lim / 2024-yil 1-son. 2024-02-29. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1442>
17. Mirzaev Q. J., Boboqulov S. B., Janzakov B. Q. Raqamli iqtisodiyot./O’quvqo’llanma/Samarqand //SamISI, “STAP-SEL” MChJ. Nashriyot-matbaabo ‘limi,-2022 y. – T. 288.
18. UN DESA, “Digital Government: Delivering Services and the SDGs”, United Nations, 2 October 2024. <https://www.un.org/en/desa/digital-government-delivering-services-and-sdgs>
19. <https://lex.uz/docs/-5030957>
20. <https://lex.uz/docs/-6600413>
21. <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>
22. https://digital.gov.uz/oz/activity_page/e_government
23. <https://asdr.gov.uz/ozbekiston-2030-strategiyasi-yangi-tahrirda-tayyorlandi/>
24. <https://www.my.gov.uz/uz/news/1199>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100